INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDA SOG‘LOM FIKR YURITISH OMILLARI TAHLILI



Erkaboyeva Nigora Shermatovna
Qo‘qon DPI Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti dekani, p.f.d., professor

Annotatsiya

ushbu maqolada talaba yoshlarda sog‘lom fikr yuritish malakalarini rivojlantirishda va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish zarurati, uning tarixiy asoslari, talaba yoshlarning fikrlashni tahlil qilish uchun sog‘lom va nosog‘lom fiklash turlari, sog‘lom fikrlashning o‘ziga hos pedagogik-psixologik xususiyatlari, talaba yoshlarni sog‘lom fikr yuritishda pedagogik-psixologik fanlar integratsiyasi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: fikr, sog‘lom tafakkur, nosog‘lom tafakkur, o‘z-o‘zini anglash, integratsiya, ob‘ektiv omillar va sub‘ektiv omillar.

Аннотация

В данной статье рассматривается развитие навыков здорового мышления у студенческой молодежи и необходимость разработки его инновационных педагогических основ, его исторических основ, здорового и нездорового типов мышления для анализа мышления студенческой молодежи, особенностей здорового мышления. раскрываются психологические особенности, интеграция педагогико-психологических наук в здоровое мышление студентов и молодежи.

Ключевые слова: мышление, здоровое мышление, нездоровое мышление, самосознание, интеграция, объективные факторы и субъективные факторы.

Annotation

In this article, the development of healthy thinking skills in young students and the need to develop its innovative pedagogical foundations, its historical foundations, healthy and unhealthy types of thinking for analyzing the thinking of young students, the characteristics of healthy thinking Pedagogical-psychological features, integration of pedagogical-psychological sciences in healthy thinking of students and young people are revealed.

Keywords: thought, healthy thinking, unhealthy thinking, self-awareness, integration, objective factors and subjective factors.

Bugungi globallashuv sharoitida inson aql zakovati hamda ma‘naviyati jamiyatni rivojlantiruvchi muhim omil sifatida namayon bo‘lib bormoqda. Bu esa o‘z-o‘zidan jahon andozalariga javob bera oladigan, innovatsion ta‘lim muhitida hamkorlikdagi faoliyatga qodir shaxsni tarbiyalash zarurati bilan bog‘liq pedagog kadrlarni yetishtirish muammosini kun tartibiga qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasi”da xalqaro tjribalardan kelib chiqqan holda oliy ta‘limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta‘limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish, oliy ta‘lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy vazifa etib belgilangan.

Xususan, gumanitar va pedagogik yo‘nalishlarda kadrlar tayyorlash sifatiga e‘tiborni kuchaytirish, ppedagogik ta‘lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv reja va dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida qayta ko‘rib chiqish va takomillashtirish, oliy ta‘limda ma‘naviy-axloqiy tarbiya mazmunini kuchaytirish, yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma‘naviy g‘oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g‘oya va mafkuralarga qarshi imunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati vujudga keldi.

Insonlarda sog‘lom fikr yuritish muammosining nazariy-tarixiy asoslari qadimgi yozma manbalarda hamda Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi sharq mutaffakirlari va jadid ma‘rifatparvarlarining asarlarida yoritib berilgan.

Insonning tafakkurini o‘rganish muammosi XIX asrning oxiri XX asrning boshlariga kelib keng o‘rganila boshlanib, insonning fikri tashqi narsalarga, ya‘ni “Ob‘ekt”ga qaratilishi yetarli emasligi, inson o‘zini his tuyg‘ularini, xatti-harakatlarini boshqarishi ya‘ni o‘zini o‘zi yaxshi bilishi kerak. Shu nuqtai nazardan professor Yu.M.Orlov shaxsning o‘zini-o‘zi anglashga, o‘zini-o‘zi boshqarishga qaratilgan fikrlashni tahlil qilish uchun sog‘lom va nosog‘lom fiklash turini farqlab ko‘radi. [Орлов.Ю.М. Оздоравливающее (саногенное) мышление / составитель А.В.Ребёнок. Серия: Управление поведением, кн.1 - Издание 2-е изд., испровленное, - М.: Солайдинг, 2006-96-с].

Maqolada talaba yoshlarda sog‘lom fikr yuritish malakalarini rivojlantirishda va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish zarurati, uning tarixiy asoslari, talaba yoshlarning fikrlashni tahlil qilish uchun sog‘lom va nosog‘lom fiklash turlari, sog‘lom fikrlashning o‘ziga hos pedagogik-psixologik xususiyatlari, talaba yoshlarni sog‘lom fikr yuritishda pedagogik-psixologik fanlar integratsiyasi asoslangan.

Bu esa talaba yoshlarning sog‘lom fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish va uning innovatsion pedagogik asoslarini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Uzluksiz ma‘naviy tarbiyani amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi”da yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash, ma‘naviy tarbiyani baholashning ilmiy asoslangan indikatorlarini ishlab chiqish, yoshlarda irodaviylik, mafkuraviy immunitet, masuliyatlilik, bag‘rikenglilik, innovatsion fikrlash, sog‘lom dunyoqarash kabi muhim fazilatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish Konseptiyaning asosiy vazifalari etib belgilangan.

Talaba yoshlarda sog‘lom dunyoqarashni rivojlantirish uchun uning shaxsiy tajribasi qiziqishlari, ijtimoiy muhit ta‘siri, pedagogik jarayonning ta‘limiy vatarbiyaviy imkoniyatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni nazarda tutgan holda uzviy olib borish muhim hisoblanadi, chunki sog‘lom fiklash bir tomondan shaxsning o‘zida kechayotgan barcha o‘zgarishlar, jarayonlar mazmunini tushunishga, ikkinchi tomondan esa, jamiyat hayotida sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarning sababini aniqlashi, mohiyatini anglashda va unga nisbatan o‘z fikrlarini sog‘lom ifodalay olishida namoyon bo‘ladi.

Sog‘lom tafakkur bu- his-hayajon, ichki kechinmalar, fikrlarni va emotsiyalarni boshqaruvchi, sog‘lomlashtiruvchi tafakkurdir.

Nosog‘lom tafakkur bu insonning salomatligiga zarar yetkazuvchi salbiy qarashlar yig‘indisi bo‘lib, u shaxsning o‘zini-o‘zi va shaxslararo munosabatlar jarayonida vujudga keladigan emotsional barqarorlik va ichki nizolar bilan izohlanadi.

Shaxsning jamiyat a‘zolari bilan munosabatlarga kirishishi ijtimoiy zarurat hisoblangani bois, bo‘lajak o‘qituvchilarda sog‘lom fikrlashni rivojlantirishda pedagogik omillarning yetakchiligi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bo‘lajak o‘qituvchilarda sog‘lom fikr yuritish o‘ziga hos pedagogik-psixologik xususiyatlarga ega bo‘lib, mazkur jarayon samaradorligini ta‘minlashda ob‘ektiv (ijtimoiy muhit) sub‘ektiv va pedagogik omillar ta‘sirini inobatga olish zarur.

Talaba yoshlarda sog‘lom fikr yuritish malakasini shakllantirishda uning individual xususiyatlarini inobatga olish, talaba uchun tanlov erkinligiga imkon berish, hamkorlikdagi faoliyatga ustuvorlik berish, pedagogik ta‘sir etishning maqbul usullarini qo‘llash, pedagogik muloqot uslubini tanlashda bo‘lajak o‘qituvchilarning yaxlit (uyg‘un) muloqot uslubiga asoslanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslanib, sog‘lom fikrlashning o‘ziga hos pedagogik-psixologik xususiyatlari ya‘ni:

- o‘z fikrini tashqi ifodalay olish, ya‘ni eksteriorizatsiyaning namoyon bo‘lishi;

- fikrlash jarayonida interiorizatsiya (ichki qabul qilish)ning namoyon bo‘lishi;
- fikrlashda noodatiylik (improvizatsiya) va ijodkorlik;
- fikrlashning refleksivligi va pozitiv fikrlash;
- fikrlash jarayonida o‘zini-o‘zi ishontirish va nazorat qilishning yuqoriligi;
- fikrlash jarayonida emotsionallik va aqliy yondashuvning uyg‘unligini inobatga olish kutilayotgan natija samaradorligiga asos hisoblanadi.

Talaba yoshlarda sog‘lom fikrlash malakalarini rivojlantirishda pedagogika oliy ta‘lim muassasalarida o‘qitiladigan pedagogika va psixologiya tizimidagi fan dasturlarining imkoniyatlari keng hisoblanib, ushbu fanlarni o‘qitishda fanlararo integratsiyasiga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Pedagogika oliy o‘quv yurtlarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlarida o‘qitiladigan “Umumiy pedagogika” va “Umumiy psixologiya”, “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Psixologiya nazariyasi va tarixi”, “Oila pedagogikasi” va “Oila psixalogiyasi”, “Ijtimoiy pedagogika” va “Ijtimoiy psixologiya”, “Pedagogik mahorat” kabi fanlarning na‘munaviy va ishchi dasturlaridagi mavzularni o‘tishda integratie yondashuvga ustuvorlik berilishi maqsadga muvofiq.

Buning uchun **birinchidan**, talabalarda sog‘lom fikr yuritish faoliga nisbatan motivatsion tizimini shakllantirish;

Ikkinchidan, talabalarda shaxsiy va ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni analitik tahlil qilish, unga nisbatan o‘z munsabatini qat‘iy bildira olish;

Uchinchidan, o‘ziga nisbatan bildirilgan tanqidiy fikrlarni qabul qila olish qobilyatini rivojlantirish;

To‘rtinchidan, o‘z-o‘zini nazorat qilish, o‘z-o‘zini rivojlantirish va o‘z-o‘ziga ijobiy munosabatni shakllantirish;

Beshinchidan, pedagogik jarayondagi xato va kamchiliklarni to‘g‘ri anglay bilish, va uning yechimlarini tanlay bilishga oid refleksiv bilim, ko‘nikmalarni rivojlantirish;

Oltinchidan, shaxslararo munosabatda sog‘lom muhitni yarata olishga oid ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish.

Yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarni talabalarning ta‘lim-tarbiya jarayonida, o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etish va olib borishda qo‘llanilishi ularda sog‘lom fikr yuritishga doir qonuniyat va tamoyillarga oid nazariy hamda inson ongini rivojlantirishga doir amaliy bilim, ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish orqali bo‘lajak o‘qituvchilarda sog‘lom fikr yuritish tarsi namoyon bo‘ladi.

Ushbu jarayonda pedagog tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta‘lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og‘zaki so‘z bilan tinglovchilarga yetkaziladigan, ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo‘lgan faoliyat bu jonli muloqot hisoblanadi. [Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.- T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2010. 312-b, 97-bet].

Jonli muloqot jarayoni talaba yoshlarning psixik xolatini o‘rganish, talabani erkin fikr bildirishga o‘rgatish, ziddiyatli vaziyatlarni jamoa bilan birgalikda hal etish, har bir talabaning ichki “meni”ini ro‘yobga chiqarishga imkon berishi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Ayniqsa, talabalar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat, shaxslararo muloqot uslubi, hamkorlikdagi faoliyat, ijtimoiy-psixologik qo‘llab quvvatlash kabi ijtimoiy omillar ham sog‘lom fikrlashni rivojlantirishda ustuvorlik kasb etadi.

Talabalarni sog‘lom fikr yuritishga oid malakalarni shakllantirishda ob‘ektiv omillar (oila muhiti, tengdoshlar jamoasi, ta‘lim-tarbiya jarayonining pedagogik sharoitlari) bilan birga sub‘ektiv omillar (O‘zlikni anglash, o‘ziga baho berish, o‘z xatti harakatlarini boshqalar bilan taqqoslay olishi, o‘z fikrini erkin bildira olish, boshqalarni tinglay olish va ob‘ektiv munosabat bildira olish, yosh davriga hos xususiyatlar) ta‘sirini inobatga olgan holda talaba yoshlarda sog‘lom fikr yuritish texnologiyalarni shakl, metod va vositalarini tanlash va amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konseptsiyasi” ro‘g‘risidagi PF-5847-son Farmoni. https://lex.uz/docs/-4545884
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma‘naviy tarbiyani amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi” to‘g‘risidagi 1059-sonli Qarori. https://www.lex.uz/docs/-4676839
3. Орлов.Ю.М. Оздоравливающее (саногенное) мышление / составитель А.В.Ребёнок. Серия: Управление поведением, кн.1 - Издание 2-е изд., испровленное, - М.: Солайдинг, 2006-96-с
4. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.- T.: “IQTISOD-MOLIYA”. 2010. 312-b, 97-bet
5. Erkaboyeva N.Sh. Pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma.- Farg‘ona.: “Farg‘ona”. 2021. 184-b.
6. Musurmonova O. Milliy qadriyatlar – oila ma‘naviyati poydevori. Monografiya. Toshkent.: “Zarvaraq nashriyoti” 2023. 104-b.